

## Oziq-ovqat hamda farmatsevtika uchun tabiiy shirinlatgichlar ishlab chiqarish texnologiyasi yaratildi

Hozirgi paytda tarkibida shakar hisoblanmagan, ammo shirin moddalar saqlovchi 15 dan ortiq o'simlik turlari ma'lum. Ushbu o'simlik turlaridan olingan steviozid strukturali glikozidlarga oziq-ovqatda shirinlashtiruvchi vosita sifatida iste'mol qilishga ruxsat berilgan.

So'nggi yillarda Surxondaryo va Toshkent viloyalarning barcha tumanlarida steviya o'simligini madaniylashtirish va ko'plab yetishtirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda.



Fanlar akademiyasi O'simlik moddalari kimyosi instituti Tajriba ishlab chiqarish korxonasi bazasida steviya o'simligi yer ustki qismi xom-ashyosidan shirinlik ko'rsatkichi shakarga nisbatan 200 barobar bo'lgan Sweetlife - I shirinlatgichi va shirinlik ko'rsatkichi shakarga nisbatan 250-300 barobar bo'lgan Sweetlife - II mahsulotlarining sanoat ishlab chiqarish texnologiyasi hamda sanoat qurilmasi yaratildi va mahsulotlarning ilk namunalari ishlab chiqarildi.